

**TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.T.21.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI

MATMURATOVA QUMRIXON RAXMANBERGAN QIZI

**O‘RTA TOLALI PAXTADAN YIGIRILGAN IP ISHLAB CHIQRISHDA
QAYTA TARASH JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISH**

**05.06.02 – To‘qimachilik materiallari texnologiyasi va
xomashyoga dastlabki ishlov berish**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2026

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавлениеавторефератадиссертациидоктора
философии (PhD) по техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of
philosophy (PhD) on technical sciences**

Matmuratova Qumrixon Raxmanbergan qizi O'rta tolali paxtadan yigirilgan ip ishlab chiqarishda qayta tarash jarayonini takomillashtirish.....	3
Матмуратова Кумрихон Рахманберган кизи Совершенствование технологии гребнечесания при выработке пряжи из средневолокнистого хлопка.....	23
Matmuratova Kumrikhon Raxmanbergan qizi Improvement of combing technology in the production of yarn from medium-fiber cotton	45
E'lon qilingan ishlar ro'uxati Список опубликованных работ List of published works.....	49

**TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.T.21.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI

MATMURATOVA QUMRIXON RAXMANBERGAN QIZI

**O‘RTA TOLALI PAXTADAN YIGIRILGAN IP ISHLAB CHIQRISHDA
QAYTA TARASH JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISH**

**05.06.02 – To‘qimachilik materiallari texnologiyasi va
xomashyoga dastlabki ishlov berish**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2026

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.3.PHD/T5976 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti huzuridagi Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.titli.uz) va «Ziyonet» axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	Matismailov Sayfulla Lolashbaevich texnika fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	Xanxadjayeva Nilufar Raximovna texnika fanlari doktori, professor
	Yuldashev Jamshid Qambaraliyevich texnika fanlari doktori, professor
Yetakchi tashkilot:	Jizzax politehnika instituti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2025.27.12.T.21.01 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil 16-aprel soat 14³⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil:100100, Toshkent sh., Yakkasaroy tumani, Shohjaxon ko'chasi, 5-uy. Tel.:(+99871) 253-06-06, (+99871) 253-08-08, faks: (+99871) 253-36-17; e-mail:titlp_info@edu.uz, Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti ma'muriy binosi, 222-xona).

Dissertatsiya bilan Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (289-raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100100, Toshkent sh., Yakkasaroy tumani, Shohjaxon ko'chasi, 5-uy. Tel.:(+99871) 253-06-06, (+99871) 253-08-08.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil 30-mart kuni tarqatildi.
(2026-yil 30-mart № 289-raqamli reysr bayonnomasi).



X.X.Kamilova
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi, t.f.d., professor

A.Z.Mamatov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash ilmiy kotibi, t.f.d., professor

Sh.Sh.Xakimov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi
Ilmiy seminar raisi, t.f.d., professor

KIRISH

(falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon to‘qimachilik iplari bozori 2025-yilda 117,99 milliard AQSh dollariga baholandi. 2034-yilga kelib ushbu ko‘rsatkich 170,32 milliard AQSh dollariga o‘shishi prognoz qilinmoqda, bu prognoz davrida o‘rtacha yillik o‘shish sur‘ati 4,26% ni tashkil etadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida har bir korxonada mahsulot tannarxini kamaytirish, shu bilan birga uning sifatini oshirish imkoniyatlarini izlaydi. Bunga qayta tarash ipini yigirishda uzun tolali paxta o‘rniga o‘rta tolali paxta navlaridan foydalanish amaliyotini misol qilib keltirish mumkin. Ushbu amaliyot mahsulot (ip) ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish bilan birga uning raqobatbardoshligini ham ta‘minlaydi. Bu borada, o‘rta tolali paxta tolasidan unumli foydalanib, qayta tarash jarayonida sifatli xomaki mahsulot ishlab chiqarishda qo‘llaniladigan texnika va texnologiyalarni takomillashtirish muhim ahamiyatga ega.

Jahon to‘qimachilik sanoatida tolalarni shikastlamaydigan texnologiyalarni joriy qilish va energiya sarfini kamaytirish uchun mashina parametrlarini optimallashtirish, ip pishiqligini oshirish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ushbu yo‘nalishda o‘rta tolali paxtadan yigirilgan ip ishlab chiqarishda qayta tarash jarayonini takomillashtirish kabi tadqiqotlar ustuvor hisoblanmoqda. Shu bilan bir qatorda, qayta tarash jarayonini takomillashtirish orqali xarajatlarni kamaytirish ishlab chiqarilayotgan ip sifatini hamda miqdorini oshirishga, texnologik jarayonlarga ta‘siri omillarini aniqlash va ratsional parametrlarini hamda ilmiy asoslangan texnologiyalarni ishlab chiqish masalalari dolzarb vazifalardan biri hisoblanmoqda.

Respublikamizda to‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini rivojlantirish, soha korxonalarining investitsiya va eksport faoliyatini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda va muayyan natijalarga erishilmoqda. 2023–2030 yillarga mo‘ljallangan “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida, jumladan, “milliy iqtisodiyotning barqaror o‘shishini ta‘minlash, sanoat tarmoqlarini modernizatsiya qilish va yuqori qo‘shimcha qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarish ulushini oshirish”... mahalliy xomashyo resurslarini chuqur qayta ishlash asosida to‘qimachilik sanoati mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini kengaytirish hamda ularning eksport salohiyatini oshirish kabi ustuvor vazifalar belgilab berilgan. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda to‘qimachilik mahsulotlarining sifat ko‘rsatkichlarini yaxshilash, raqobatbardosh xususiyatlarga ega mahsulotlar ishlab chiqarishni ta‘minlaydigan zamonaviy va energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etish muhim va dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 1-maydagi PF-71-sonli “To‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini rivojlantirishni yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2020-yil 5-maydagi PF-5989-sonli “To‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha kechiktirib bo‘lmaydigan chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2022-yil 21-yanvardagi PF-53-sonli “To‘qimachilik va tikuv-trikotaj korxonalarini yuqori qayta ishlash qiymatiga ega tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish va eksportni rag‘batlantirish chora-tadbirlari

to'g'risida"gi Farmonlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining II. «Energetika, energiya resurstejamkorlik» ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Qayta tarash jarayonining nazariy-metodologik asoslarini ishlab chiqish bo'yicha professorlar B.Ye.Zotikov, I.V.Budnikov, P.P.Trikov, A.G.Sevostyanov, I.G.Borzunov, D.B.Riklin, Magdi El Messiry, Naglaa Hosny, Gada Esmat kabi olimlar tomonidan tadqiqotlar olib borilgan. Rieter (Shvetsariya), Truetzschler (Germaniya), Marzoli, VOUK (Italiya), HOWA, Toyoda (Yaponiya) Plat (Angliya), Lakshmi (Hindiston) kabi xorijiy yetakchi firmalar innovatsion texnologiyalar asosida yangi qayta tarash mashinalarini yaratishmoqda va asosiy ishchi qismlarini takomillashtirish ishlari bilan shug'ullanmoqdalar. Qayta tarash mashinasi ta'minlash parametrlarining tarash samaradorligiga ta'siri bo'yicha K.M. Badalov, I.I. Shtut, M.M. Vorkovetskiy, V.A. Titovets, O.M. Kotovich, Muhammad Riyaz-ul-Islam, A. Muralikrishnan, R.L.N. Iyengar, Moon W.Suh, Jae L.Woo, Hyun-Jin Koo va boshqalar tomonidan tadqiqot ishlari olib borilgan.

Respublikamizda qayta tarash jarayoni samaradorligini oshirish masalalari bo'yicha Sh.R. Marasulov, R.G. Amirova, X.X.Ibragimov, L.A. Amzaev, Q.G' G'ofurov, S.L. Matismailov, A. Pirmatov, V.T.Isakulov va boshqa bir qator olimlarning samarali mehnatlari e'tiborga loyiqdir.

Qayta tarash iplarini yigirish bo'yicha ko'plab innovatsion yechimlar mavjud bo'lsa-da, hal qilinishi kerak bo'lgan muammolar ham mavjud, jumladan, o'rta tolali paxtani qayta tarashda tolalarning saralanib ajralish darajasini oshirish, tolalarning shikastlanishini kamaytirish kabi muammolar ushbu dissertatsiya mavzusini tanlashga asos bo'ldi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasini ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent to'qimachilik va yengil sanoati instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi tolalar shikastlanishini kamaytirish va mahsulot chiqishini oshirish maqsadida tolalarni qayta tarash jarayonida taroqli barabancha segmentini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari. Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalar belgilab olindi:

zamonaviy qayta tarash texnikasi va texnologiyasini tahlil qilish;
tolalarni qayta tarashda uzunliklari bo'yicha saralanib ajralishini tahlil qilish;
taroqli barabancha segment moslamasini o'zgartirish orqali qayta tarash jarayonini takomillashtirish;

takomillashtirilgan taroqli segmentli qayta tarash mashinasining ishchi parametrlarini matematik modellashtirish va uning afzalliklarini nazariy asoslash;

an'anaviy va takomillashtirilgan taroqli segment moslamalaridan foydalanib, tayyorlangan qayta taralgan pilta va yigirilgan iplarning sifatini baholash bo'yicha tajribalar o'tkazish.

Tadqiqotning ob'ekti: qayta tarash mashinasi, turli taroqli segment moslamalari, tarandi, qayta taralgan pilta va yigirilgan ip.

Tadqiqotning predmeti: taroqli segment moslamasini takomillashtirish yo'li bilan qayta tarash jarayonini jadallashtirish, barabanchaning aylanish chastotasi, shaylash parametrlari, ip sifat ko'rsatkichlari.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida dispersion tahlilning bir omilli usullari, tajribani matematik rejalashtirish, nazariy mexanika, o'lchashning zamonaviy usullari va vositalari, to'qimachilik tadqiqotlarida matematik statistik usullari, regressiya tenglamalar asosida qurilgan izochiziqlarini talqin qilish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

qayta tarash samaradorligi hamda taram sifatini oshirish maqsadida qayta tarash mashinasining taroqli barabancha segment moslamasini o'zgartirish orqali tolalarni qayta tarash jarayoni takomillashtirilgan;

tolalarni taram va tarandiga ajratishda takomillashtirilgan taroqli barabancha segment moslamasining ta'sirini ifodalovchi harakat tenglamasi Lagranj qonuniyatidan foydalangan holda ishlab chiqilgan;

takomillashtirilgan taroqli segmentli qayta tarash mashinasining ishchi parametrlari – taroqli barabancha zarba chastotasi hamda qisqichning pastki jag'i va ajratuvchi silindr orasidagi masofalarning ratsional qiymatlari ko'p omilli regression modellarni tahlili asosida aniqlangan;

qayta tarash mashinasida takomillashtirilgan taroqli segment moslamasini qo'llash natijasida ishlab chiqarilgan qayta taralgan pilta va ip notekisligining kamayishi hamda ip pishiqligining ortishi isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

nazariy va tajribaviy tadqiqotlar asosida qayta tarash mashinasida takomillashtirilgan barabancha segmentidan foydalanish natijasida qayta tarash piltasi kalta va uzun kesimlardagi notekisligini kamaytirish, tolalarni saralash aniqligini oshirish, tolalarning uzilish ehtimolini 2% ga, nuqsonlar sonini esa 10% ga kamaytirish imkoniyati mavjudligi amalda isbotlangan;

olingan natijalarning tahlili asosida takomillashtirilgan taroqli barabancha segmentini ishlatishda qayta tarash mashinasi asosiy ishchi qismlarining ratsional shaylash parametrlari aniqlanib pilta sifatiga ta'sir etuvchi omillar asoslangan;

o'rta tolali paxta seleksiya navlaridan strukturasi yaxshilangan qayta tarash piltasidan foydalanib, chiziqiy zichligi 20 teksli ip ishlab chiqarishda ipning solishtirma uzish kuchi va bir tekisligi, yigirish jarayoni barqarorligi oshgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi nazariy va eksperimental tadqiqotlarning mosligi, aprotatsiya va joriy qilinishi natijalarining ijobiyliigi, shuningdek, natijalarning solishtirilishi, baholash mezonlari bo'yicha va ularning adekvatliligi, tadqiqotning ijobiy natijalarini ushbu fan sohasida olingan ma'lumotlar bilan qiyosiy taqqoslanishi bilan ta'minlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati qayta tarash mashinasi uchun takomillashtirilgan taroqli barabanchasida rezinali amortizatorlaridan foydalanish, arra tishli segmentlarning kichik burchakli tebranishlari hisobiga tolalarni ajratish va ularning uchlarini to'g'rilash jihatidan afzalligi nazariy asoslanishi, burchak tezlanishi tufayli tolaga qo'shimcha kuchlarning ta'sirini ifodalovchi tenglamalar olinganligi, qayta tarash piltasi va ip sifatiga omillarning (taroqli barabancha aylanish tezligi va asosiy ishchi organlar orasidagi masofa) ta'sir darajasini aniqlash va omillarni o'zgartirganda pilta va ip sifatini bashorat qilish imkonini beradigan regressiya tenglamalari ko'rinishidagi olingan matematik modellar bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati qayta taralgan pilta va yigirilgan ipning barcha asosiy xossalari bo'yicha sifat darajasi oshganligi, ip yigirish jarayonida ipdagi uzilishlar sonini 20-25% ga ya'ni 1000 ta urchuq uchun ip uzilishlar soni 59 dan 44 tagacha kamayganligi, mashinaning unumdorligi 1,66 kg/soatga oshganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Taroqli barabancha segmentini takomillashtirish asosida olib borilgan tadqiqotlarning ijobiy natijalari asosida:

qayta tarash mashinasining takomillashtirilgan taroqli barabanchasi uchun O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi qoshidagi intellektual mulk Agentligining (№ IAP 8021. 14.03.2025 yil) ixtiro patenti olingan. Natijada takomillashtirilgan taroqli segment moslamasi tolalarni ajratish va to'g'rilash samarasini sezilarli darajada oshirish imkonini bergan;

qayta tarash mashinasida takomillashtirilgan taroqli barabanchasini qo'llab, mashina asosiy ishchi organlari ratsional parametrlari "O'zto'qimachilik sanoat" uyushmasi tarkibiga kiruvchi "TEXTILE FINANCE KHOREZM" MChJ korxonasi ishlab chiqarishga joriy etilgan ("O'zto'qimachilik sanoat" uyushmasining 2025-yil 4-noyabrda № 02/06-2614 sonli ma'lumotnomasi), natijada o'rta tolali paxtadan foydalanib olingan qayta tarash piltasining fizik-mexanik ko'rsatkichlari: kalta tolalar miqdori 1,4% ga, kesim bo'yicha notekislik 0,34% ga kamaygan, modal uzunligi 1,39 mm ga oshgan, halqali usulda yigirilgan ipning barcha asosiy xossalari bo'yicha sifatini oshirishga va ip shakllanish jarayoni barqarorlashishiga erishilgan.

Tadqiqot natijalarini aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 9 ta, shu jumladan 3 ta xalqaro va 6 ta respublika miqyosidagi ilmiy-texnik va ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 14 ta ilmiy ishlar chop etilgan bo'lib, shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasi (PhD) dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola, shundan 1 ta xalqaro va 1 ta Scopus bazasiga kiruvchi jurnallarda va 2 tasi respublika jurnallarida chop etilgan, hamda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi intellektual mulk Agentligi tomonidan 1 ta ixtiroga patent olingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to‘rtta bob, xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 113 betni tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati aks ettirilgan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, shuningdek, obykti va predmeti tavsiflangan, tadqiqot ishining respublika fan va texnologiyalari rivojlanishning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiliklari va amaliy natijalari bayon etilgan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“To‘qimachilik sanoatida qayta tarash ipini ishlab chiqarish holati”** deb nomlangan birinchi bobida o‘rta tolali paxtadan qayta tarash ipini ishlab chiqarishga global tendensiyaning asosiy omillari o‘rganilgan. Bularga bozor raqobati tufayli ip sifatiga yuqori talablar, xomashyo tanqisligi va uzun tolali paxtaning yuqori narxi hamda zamonaviy qayta tarash uskunalarning keng imkoniyatlari kiradi.

Onlayn axborot resurslaridan foydalangan holda ilmiy va o‘quv adabiyotlari, shuningdek, tadqiqot mavzusi bo‘yicha tadqiqot ishlari (dissertatsiyalar, monografiyalar, maqolalar va boshqalar) chuqur tahlil qilindi. Qayta tarash jarayonining asosiy maqsadlari aniqlangan va zamonaviy qayta tarash mashinalarining xususiyatlari ta‘kidlangan. Qayta tarash jarayonining samaradorlik ko‘rsatkichlari bu tolalarni tozalash darajasi hamda tolalarni taram va tarandiga saralash aniqligidir.

Ilmiy adabiyotlarni o‘rganish va tahlil qilish asosida qayta tarash jarayoni samaradorligiga ta‘sir qiluvchi bir qator omillar aniqlandi:

tuzilish omillari (taroqli barabanchadagi tishlar soni, taroqlar soni, tishlarning taqsimlanishi, tish shakli, tishlar orasidagi masofa va boshqalar);

jarayon omillari (chiziqiy zichlik va oraliq kengligi, ta‘minlash uzunligi);

qayta tarash mashinasining ishchi element sozlamalari (tezlik, sozlash) va ularning o‘zaro ta‘siri.

Qayta tarash iplarini yigirish bo‘yicha ko‘plab innovatsion yechimlar mavjud bo‘lsa-da, hal qilinishi kerak bo‘lgan muammolar ham mavjud, jumladan, o‘rta tolali paxtani qayta tarashda tolalarning saralanib ajralish darajasini oshirish, tolalarning shikastlanishini kamaytirish ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish asosida tadqiqotning maqsad va vazifalari aniqlandi.

Dissertatsiyaning **“Qayta tarash jarayoni va mashinalarini takomillashtirish bo‘yicha nazariy tadqiqotlar”** deb nomlangan ikkinchi bobida tolalarni taram va tarandiga saralanib ajralish jarayoni nazariy tahlil etilgan.

Tolalarni taram va tarandiga saralash jarayonining nazariy tahlillari shuni ko‘rsatadiki, bir qator sabablarga ko‘ra, “noaniq saralangan” tolalar guruhi mavjud bo‘lib, ular uzunligidan qat‘iy nazar ham taram, ham tarandi tarkibiga tushishi mumkin. Uzun, lekin kamroq to‘g‘rilangan tolalar tarandiga, kaltaroq, lekin

yaxshiroq to'g'rilangan tolalar esa taram tarkibiga o'tishi mumkin.


Taroqli barabanча yoki ustki taroq bilan tarashda uzun tolalarning uzilishi natijasida tarandi miqdori ortadi. Shu bilan birga, ajratuvchi silindr tomonidan ushlab qolingani tolani uzilgan bir qismi tarandiga o'tishi taram tarkibida kalta tolalar miqdorini oshishiga olib kelishi mumkin.

Qayta tarash jarayonida uzilgan tolalar miqdorini aniqlash uchun ushbu dissertatsiya ishida barcha uzunliklar bo'yicha tola balansini hisoblash usuli taklif qilingan, bunda tola uzunligini uzunlik guruhlari bo'yicha, xolstcha, qayta taralgan pilta va tarandini aniqlashni o'z ichiga oladi.

Mavjud taroqli barabanча samaradorligini tahlil qilish taroqli segment moslamasini takomillashtirish orqali tola ajratish va tekislash samaradorligini oshirish imkoniyatini ochib berdi. Taroqli segment moslamasini takomillashtirishda Rieter kompaniyasining qayta tarash mashinalarida ishlatiladigan Primocomb Graf kompaniyasining taroqli segmenti (E 80, E90 markasi) prototip sifatida olingan.

Taklif etilayotgan taroqli barabanча orqali xolstchadagi tolalar tutamini tarash jarayonida tolalarni ajratish va to'g'rilash samaradorligini sezilarli darajada oshirish mumkin. Bu muammo taroqli barabanчaning aylanish yo'nalishi bo'yicha amplitudasi kamayib boruvchi tishli segmentlarning kichik burchak tebranishlarini yaratish orqali hal qilinadi. Buning uchun trapetsiya shaklidagi barmoqlar pastki (2) va yuqori (3) qismlardan iborat qilib yasalgan va ular orasiga rezina amortizatorlar (4) o'rnatilgan. Qo'shni trapetsiya barmoqlaridagi rezina amortizatorlarning qalinligi taroqli barabanча aylanish yo'nalishi bo'yicha asta-sekin kamayib boradi.

Konstruksiyaning umumiy sxemasi 1-rasmda keltirilgan. Rezina amortizatorlarning qalinligi barabanча aylanish yo'nalishi bo'yicha kamayib boradi va $h_1 > h_2 > h_3 > h_4$ nisbatga ega. Bunda h_1, h_2, h_3, h_4 – segmentlarning trapetsiya barmoqlari (2) tarkibidagi rezina amortizatorlarning (4) qalinligini bildiradi.



1-rasm. Takomillashtirilgan taroqli segment sxemasi

1-trapetsiya yoriqli korpus, 2-trapetsiya barmoqlari, 3-yuqori qism, 4-rezina amortizator, 5-vintlar, 6-tishli segment, 7-arra tishlar, 8-o'yoq


6- tishli segment detalning korpusi (1) taroqli barabanча yuzasiga o'yoq 8 orqali boltli birikma yordamida mahkamlangan. Yuqori qism (3) shakli o'xshash tishli segmentning yorig'iga kiritilib o'rnatiladi.

Rezina amortizatorlar (4) ulardagi deformatsiya hisobiga aylana yo‘nalishida kichik burchak tebranishlarini amalga oshirish imkonini beradi. Natijada, tolalarga ta‘sir qiluvchi tezlik o‘zgaradi va burchak tezlanishi tufayli tolalarni samarali ajratib, to‘g‘rilaydigan qo‘shimcha kuchlar paydo bo‘ladi.

Birinchi 6-segment ta‘sir zonasida rezina amortizatorning katta qalinligi (h_1) tufayli burchak tebranishlari maksimal bo‘ladi. Keyingi segmentlarda bu tebranishlar asta-sekin kamayib boradi.

Takomillashtirilgan taroqli segment moslamasi tolalarni ajratish va to‘g‘rilash samarasini sezilarli darajada oshirish imkonini beradi.

Takomillashtirilgan taroqli segment moslamasi to‘rtta qismga ajratildi. Har bir segmentda o‘rnatilgan rezina amortizatorlarning tolalar oqimiga ta‘sirini nazariy tahlili keltirildi, bunda turli xil balandliklarda o‘rnatilgan rezina qoplamalardan foydalanib elastik kuchini o‘zgarishi natijasidagi holatlar ko‘rib chiqildi. Har bir segmentning yoy uzunliklari quyidagicha tanlab olinadi: $\overline{AB} = S_1$; $\overline{BC} = S_2$; $\overline{CD} = S_3$; $\overline{DE} = S_4$ va har bir yoy uchun qamrash burchaklarini mos ravishda φ_1 ; φ_2 ; φ_3 ; φ_4 bilan belgilandi. Bu parametrlar 2-rasmda keltirilgan.



2-rasm. Takomillashtirilgan taroqli segmentlarga ajratilgan sxemasi

Faraz qilinib dastlab A_0B_0 (AB) tish yuzasida $t = 0$ vaqtdagi tolalar $A_0B_0C_0$ tish yuzasidagi holati etib belgilandi. Bu holda dekart koordinatalar sistemasi kiritiladi. U holda uchburchak $\Delta A_0B_0C_0$ dan M_0 massali tola boshlang‘ich kordinatalar sistemasida 3-rasmda keltirilgandek holda bo‘ladi.

Bu yerda, $C_0O = B_0O = R$, $A_0O = l$, $M_0B_0 = r_0$, $\angle C_0OB_0 = \alpha_0$, $\angle A_0B_0O = \beta$.

3-rasmdan tolalarning dastlabki harakati trayektoriya tenglamasidan quyidagi tenglikni hosil qilinadi.


$$\begin{aligned} x_0 &= R \cdot \cos(\alpha_0 + \alpha_1) + r_0 \cdot \sin \beta_0 \\ y_0 &= R \cdot \sin(\alpha_0 + \alpha_1) + r_0 \cdot \cos \beta_0 \end{aligned} \quad (1)$$

φ_0 va β_0 burchaklar arra tishning qiyalik burchagiga bog‘liq holda olinadi:

$$\varphi_0 = \frac{\pi}{2} + \alpha_0 + \alpha_1 + \omega \cdot t - \beta, \quad \beta_0 = \beta - \alpha_0 - \alpha_1 - \omega \cdot t$$

Lagranjning II tur tenglamasi tuziladi va tenglamani hisoblab, tishning qiyalik

burchagi va diskretlovchi barabanchaning aylanish chastotasiga bog‘liqligi keltirib chiqariladi.



3-rasm. Qayta tarash barabancha tishi asosidagi tolalarning dastlabki harakati

$$\frac{d}{dt} \left(\frac{\partial T}{\partial \dot{r}} \right) - \frac{\partial T}{\partial r} = Q_r \quad (2)$$

Umumlashgan koordinatalar sifatida garnitura arra tishining uzunligi h deb qabul qilinadi.

Bu yerda, $T = \frac{1}{2} m (\dot{x}^2 + \dot{y}^2)$ – kinetik energiya, Q_r –umumlashgan kuch, m – tola massasi.

Kinetik energiya aniqlanadi.

$$T = \frac{m}{2} \cdot (\dot{x}_1^2 + \dot{y}_1^2) \quad (3)$$

Tolaning dekart koordinatalar sistemasi bo‘yicha harakat tenglamalaridan vaqt bo‘yicha birinchi tartibli hosila olinib, tolalarning tish osti asosidagi tezliklari hisoblanadi.

$$\ddot{r} + 2 \cdot n \cdot \dot{r} - \omega^2 \cdot r = A_0 \cdot \sin \lambda + B_0 \cdot \cos \lambda \quad (4)$$


differential tenglama hosil bo‘ladi. Bu tenglama koeffitsiyentlari o‘zgarmas bo‘lgan ikkinchi tartibli bir jinsli bo‘lmagan chiziqli differensial tenglamadan iborat bo‘lib, uning yechimi bir jinsli tenglamaning umumiy yechimi r_1 bilan (4) tenglamaning xususiy yechimi r_2 larning yig‘indisiga teng bo‘ladi.

Barcha aniqlangan o‘zgarmas qiymatlar umumiy tenglamaga qo‘yilib harakat tenglamasining umumiy yechimi aniqlanadi.


$$S = \frac{N_1 \cdot \mu_1 - N_2}{\mu_2 - \mu_1} \cdot e^{\mu_1 \cdot t} + \frac{N_1 \cdot \mu_1 - N_2}{\mu_1 - \mu_2} \cdot e^{\mu_2 \cdot t} - \frac{2 \cdot \omega^2 \cdot (2 \cdot n \cdot \omega \cdot A_0 - 2 \cdot n \cdot B_0) + (4 \cdot \omega^4 + \omega^2 \cdot n^2) \cdot B_0}{2 \cdot n \cdot \omega \cdot (4 \cdot \omega^4 + 4 \cdot \omega^2 \cdot n^2)} \cdot \sin \lambda + \frac{2 \cdot n \cdot \omega \cdot A_0 - 2 \cdot \omega^2 \cdot B_0}{4 \cdot \omega^4 + 4 \cdot \omega^2 \cdot n^2} \cdot \cos \lambda + \frac{k_1 \cdot \Delta h_1}{m} \cdot t^2 \quad (5)$$

Ushbu (5) tolalarning AB yoy bo‘ylab tish osti asosidagi rezina qoplamalarning turli xil bikrlilik koeffitsiyentlarini, taroqli barabanchaning aylanish chastotasi va chiziqli tezligiga bog‘liq tenglamasi keltirib chiqarildi.


Bu tenglamadan tolalarni bir tekisda uzatish maqsadida tavsiya qilinayotgan parametrlarning ratsional qiymatlarini aniqlashda qayta tarash mashinasi taroqli barabanchasining aylanish chastotasini $n_1 = 490 \text{ min}^{-1}$; $n_2 = 390 \text{ min}^{-1}$; $n_3 = 440 \text{ min}^{-1}$ qiymatlarda, rezina qoplamalarning turli xil bikrlilik koeffitsiyentlarini $k_1 = 0,24 \text{ H/mm}$, $k_2 = 0,26 \text{ H/mm}$, $k_3 = 0,28 \text{ H/mm}$ qiymatlari va tolalarning chiziqli tezliklari $v_1 = 10,3 \frac{\text{m}}{\text{s}}$, $v_2 = 8,2 \frac{\text{m}}{\text{s}}$, $v_3 = 9,2 \frac{\text{m}}{\text{s}}$ qiymatlarda tolalarning harakati tahlil qilindi (4-7 rasmlar). Rasmlarda tolalar harakati chiziqli tezligining o‘zgarishi, aylanish chastotasining o‘zgarishi va qiyalik burchaklarining o‘zgarishlari bo‘yicha grafiklari keltirilgan.




4-rasm. Tolalar oqimini uzatishda rezinaning bikirlilik koeffitsiyentlarini turli xil $k_1 = 0,24 \text{ H/mm}$, $k_2 = 0,26 \text{ H/mm}$, $k_3 = 0,28 \text{ H/mm}$ qiymatlarida vaqtga bog‘liqlik grafifi



5-rasm. Tolalar oqimini uzatishda rezinaning bikirlilik koeffitsiyentlarini turli xil $k_1 = 0,20 \text{ H/mm}$, $k_2 = 0,18 \text{ H/mm}$, $k_3 = 0,16 \text{ H/mm}$ qiymatlarida vaqtga bog‘liqlik grafifi



6-rasm. Tolalar oqimini uzatishda rezinaning bikirlilik koeffitsiyentlarini turli xil $k_1 = 0,18 \text{ H/mm}$, $k_2 = 0,16 \text{ H/mm}$, $k_3 = 0,14 \text{ H/mm}$ qiymatlarida vaqtga bog‘liqlik grafifi



7-rasm. Tolalar oqimini uzatishda rezinaning bikirlilik koeffitsiyentlarini turli xil $k_1 = 0,14 \text{ H/mm}$, $k_2 = 0,12 \text{ H/mm}$, $k_3 = 0,10 \text{ H/mm}$ qiymatlarida vaqtga bog‘liqlik grafifi

Xulosa qilib shuni aytilish mumkinki, grafiklarda tolalarning harakatini bir tekisda alohida-alohida uzatishda tishning qiyalik burchagi, chiziqli tezligi, aylanish chastotalari muhim ahamiyatga ega ekanligi ko‘rinib turibdi. Kalta tolalardan va tugunaklardan tozalangan tolalar porsiyalari yuqori sifatli ip ishlab chiqarish shartlaridan biri ekanligi aniqlandi. Bundan tashqari xolstchadagi tolalar tutamini ajratuvchi barabancha silindrigacha bo‘lgan $\check{S} = 440 \text{ mm}$ masofani $t = 2,8 \cdot 10^{-4} \text{ s}$ vaqtda ishchi kameraga uzatilishi, tishning balandligi $r = 1,8 \text{ mm}$ ekanligi hisoblab chiqildi va bu grafiklarda o‘z tasdig‘ini topdi. Natijada iplarning shikastlanishi kamayib, ipning uzish kuchiga ta’sir qilishi aniqlanadi.

“Textile Finance Khorezm” korxonasi ishlab chiqarish sharoitida E-90 markali (Rieter firmasi) qayta tarash mashinasiga korxonada texnologik parametrlari kiritilgan holda turli taroqli barabanchalar o‘rnatilib, qayta taralgan pilta sifatiga ta’sirining solishtirma tahlili o‘tkazildi.

Har bir variantdagi taralgan piltalar Uster Tester 5-S400 yordamida sinovdan o‘tkazildi. Taram va tarandidagi ifloslanish va tola uzunligi Afis Pro yordamida aniqlandi. Taqqoslangan variantlar uchun taralgan ipning o‘rtacha sifat ko‘rsatkichlari 1-jadval va 8-rasmda ko‘rsatilgan.

Ikki barabancha tuzilishining (korxonada variant va takomillashtirilgan variant) qiyosiy sinovlari takomillashtirilgan taroqli segment moslamasining afzalliklarini ko‘rsatdi.


1-jadval

Taralgan piltaning fizik-mexanik ko‘rsatkichlari

T/r	Ko‘rsatkichlar nomi	Nazorat variant	Tajriba variant
1	Variatsiya koeffitsiyenti, %		
	- 1 m kesimlarda	1,06	1,00
	- 3 m kesimlarda	0,72	0,70
2	Kesim bo‘yicha notekislik, %		
	-chiziqliy, U	2,47	2,20
	-variatsiya koeffitsiyenti, Cm	3,10	2,76
3	Shtapel uzunligi, mm	33,0	34,4
4	Kalta tolalar miqdori, %	5,4	4,6
5	Nuqsonlar soni		
	1 g piltadagi, dona:	36	28
	- tugunlar	34	26
	-ifloslik	2	2

1-jadval va 8-rasmdan ko‘rinib turibdiki, takomillashtirilgan taroqli barabanchadan foydalanib olingan piltaning uzun kesimlarda (1 m va 3 m) qayta tarash piltasining notekisligiga deyarli ta’sir qilmaganligini ko‘rish mumkin:

qayta tarash piltasining kvadratik notekisligi 11% ga (nisbiy) 3,1% dan 2,76% gacha kamaydi;



8-rasm. Qayta taralgan piltalarning kesim bo'yicha notekislik ko'rsatkichlari

■ - nazorat

■ - tajriba

tolalarning yaxshiroq tekislanishi va uzilgan tolalar sonining 3,6% ga kamayishi hisobiga piltadagi tolaning shtapel uzunligi 1,4 mm ga oshdi;

1 g piltadagi nuqsonlar soni 30% ga kamaydi.

Bir omilli dispersiya tahlili shuni ko'rsatdiki, taqqoslangan variantlardagi taralgan piltaning sifat ko'rsatkichlari bir-biridan sezilarli darajada farq qiladi.

Dissertatsiyaning **“Takomillashtirilgan taroqli segment moslamaning qayta taralgan pilta sifatiga ta'siri”** deb nomlangan uchinchi bobida “Textile Finance Khorezm” MChJ ishlab chiqarish sharoitida o'rta tolali paxtadan qayta tarash ipini olishda qayta tarash jarayonini ratsionallashtirish maqsadida o'tkazilgan eksperimental tadqiqotlar keltirilgan.

Takomillashtirilgan taroqli barabancha bilan jihozlangan E-90 (Rieter firmasi) qayta tarash mashinasi shaylash parametrlarining qayta taralgan pilta sifatiga ta'siri o'rganildi.

Qayta tarash mashinasi shaylash parametrlarining qayta taralgan pilta sifatiga ta'sirini o'rganishda ikkita omil o'rganildi: taroqli barabanchaning zarba chastotasi (X_1), qisqichning pastki jag'i va ajratuvchi silindr orasidagi masofa (X_2).

Omillarni tanlash bir qator nazariy va tajribaviy tadqiqotlardagi dastlabki ma'lumotlarni tahlil qilish asosida amalga oshirildi. Tajriba rejasi 3^2 TOT (to'la omilli tajriba) – 9 ta sinovdan iborat. Barcha sinovlar uch takroriylikda o'tkazildi.

Omillarning o'zgarish darajalari 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval

Omillarning o'zgarish darajalari

Omillar	Omillar qiymati			Variatsiya oralig'i
	-1	0	+1	
X_1 - taroqli barabanchaning zarba chastotasi, min^{-1}	340	390	440	50
X_2 - qisqichning pastki jag'i va ajratuvchi silindr orasidagi masofa, mm	10,5	11	11,5	0,5

Ratsionallashtirish parametrlari quyidagilardan:

y_1 – qayta tarash piltasining kesim bo'yicha notekisligi, Cm %

y_2 - taramdagi tolaning shtapel uzunligi, L mm

y_3 - taramdagi kalta tola miqdori, %.

Barcha variantlardagi qayta tarash piltasi USTER firmasining zamonaviy laboratoriya jihozlarida sinovdan o'tkazildi, olingan sifat ko'rsatkichlari USTER STATISTICS 2023 me'yorlari bilan solishtirish yo'li orqali baholandi.

9 ta variantdagi qayta tarash piltasining sifat ko'rsatkichlari 3-jadvalda keltirilgan va aniqlik uchun 9-10-rasmlarda diagrammalar ko'rinishida keltirilgan.

3-jadval va 9-rasmdan ko'rinib turibdiki taramdagi kalta tolalar miqdori taroqli barabanacha tezligining (X_1) pasayishi bilan, shuningdek, ko'p jihatdan qisqichning pastki jag'i va ajratuvchi silindr orasidagi masofaga bog'liq (X_2). Qisqichning pastki jag'i va ajratuvchi silindr orasidagi masofa qanchalik katta bo'lsa ko'proq taralgan tolalar ajralib chiqadi, ya'ni kalta tolalar ko'proq taramga emas, tarandi miqdoriga o'tib ketadi. To'qqizta variantdan maksimal masofa $X_2=11,5$ mm bo'lganda kalta tolalarning minimal soni 7-variantda 3,9% ni tashkil qiladi.

Kesim bo'yicha notekisligi (tuzilish notekisligi, Cm) qisqichning pastki jag'i va ajratuvchi silindrlar orasidagi masofaning kamayishi bilan ortadi, shuningdek, taroqli barabanacha tezligining oshishi bilan kesim bo'yicha notekislik ortadi. 6, 7, 8-variantlarda qayta tarash piltasining eng kichik strukturaviy notekisligini ko'rish mumkin.

3-jadval


Qayta taralgan piltaning fizik-mexanik ko'rsatkichlari

№	Ko'rsatkichlar nomi	Variantlar									
		1	2	3	4	5	6	7	8	9	
1	Chiziqiy zichlik, teks	5,01	5,02	4,99	5,0	5,0	5,01	4,99	5,02	5,0	
2	Qirqim bo'yicha variatsiya koeffitsiyenti uzunligi:	1m	1,22	0,98	1,18	1,20	1,21	0,88	0,98	0,90	0,96
		3m	0,74	0,60	0,71	0,71	0,72	0,54	0,78	0,68	0,72
3	Kesim bo'yicha notekisligi										
	-chiziqi, Um, %	2,79	2,56	2,64	2,70	2,74	2,10	2,38	2,29	2,52	
	-kvadratik, Cm%	3,49	3,20	3,31	3,38	3,43	2,62	2,98	2,86	3,16	
	Cm/Um	1,253	1,251	1,252	1,252	1,253	1,25	1,251	1,251	1,252	
4	Qayta tarash piltasidagi tolaning shtapel uzunligi, L_{shp} mm	32,8	35,1	34,6	34,8	34,0	34,9	35,4	34,9	33,0	
	Qayta tarash piltasidagi tolaning modal uzunligi, L_{mod} mm	29,4	31,5	30,8	31,3	30,3	31,1	31,8	31,4	29,6	
	Qayta tarash piltasidagi kalta tolalar miqdori, %	5,0	4,3	4,1	4,5	4,7	4,0	3,9	4,0	4,5	
	1 g qayta tarash piltasidagi tugunlar soni (neps), dona.	27	21	23	18	28	24	15	21	27	


10-rasmda piltadagi tolaning shtapel uzunligi va tarash zonasining ta'minlash parametrlariga qarab 1 g piltadagi nepslar soni ko'rsatilgan.

R ning qiymati taramning ifloslanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. 7-variantda taramdagi nepslarning minimal soni 1 g pilta uchun 15 birlik, taramdagi tolalarning maksimal uzunligi esa 35,4 mm. Qayta taralgan pilta chiqishi ortishi bilan tolalarning shtapel uzunligi 1,5-2,4 mm ga oshadi. Shtapel uzunligining minimal qiymati

1-variantda ($L_{\text{sht}} 32,8$ mm), chunki bu variant eng minimal masofaga ya'ni $R=10,5$ mm (X_2) ega. 3-jadval va 10-rasmda ham barabancha tezligi bu ko'rsatkichga katta ta'sir ko'rsatmasligini ko'rish mumkin.



9-rasm. Qayta taralgan pilta ko'ndalang kesimining notekisligi (Cm %) va undagi kalta tolalar miqdori (%) qayta tarash mashinasining shaylash parametrlariga bog'liqligi



10-rasm. Qayta taralgan pitalardagi tolalarning shtapel uzunligi va 1 g piltadagi nepslar soni

O'rganilayotgan omillarni ratsionallashtirish parametrlariga ta'sir qilish darajasini aniqlash uchun matematik modellar (regressiya tenglamalari) tuzildi.

Tenglamalar koeffitsiyentlarining ahamiyatliligi Styudent mezoni yordamida va tenglamalarning adekvatligi Fisher mezoni yordamida baholandi.

Ahamiyatsiz koeffitsiyentlarni olib tashlagandan so'ng, regressiya tenglamalar quyidagi shaklga ega bo'ladi:

1. Qayta taralgan piltaning kesim bo'yicha notekisligi, Cm % (Y_1)

$$y_1 = 3,18 + 0,12x_1 - 0,04x_2 + 0,05x_1 \cdot x_2 + 0,0128x_1^2$$

2. Qayta tarash piltasidagi tolaning shtapel uzunligi, mm, L_{mm} (Y_2)


$$y_2 = 34.51 - 0,53x_1 - 0,18x_2 - 0,53x_1 \cdot x_2 - 0,13x_1^2 + 0,15x_2^2$$

3. Qayta taralgan piltadagi kalta tolalar miqdori, % (Y_3)

$$y_3 = 4,38 + 0,17x_1 + 0,116x_2 + 0,27x_1 \cdot x_2 + 0,113x_1^2$$


Qayta taralgan piltaning kesim bo'yicha, qayta taralgan piltadagi tolaning shtapel uzunligi va qayta taralgan piltadagi kalta tolalar miqdori bo'yicha regression tenglamalarni tahlil qilish va tushunarli bo'lishi uchun "Mathcad" dasturidan foydalanib ularning grafiklari olindi (11, 12, 13-rasmlar).

$$y_1 = 3,18 + 0,12x_1 - 0,04x_2 + 0,05x_1 \cdot x_2 + 0,0128x_1^2$$




11-rasm. Qayta taralgan piltaning kesim bo'yicha notekisligi izochizig'i

$$y_2 = 34.51 - 0,53x_1 - 0,18x_2 - 0,53x_1 \cdot x_2 - 0,13x_1^2 + 0,15x_2^2$$



12-rasm. Qayta taralgan piltadagi tolaning shtapel uzunligi

$$y_3 = 4,38 + 0,17x_1 + 0,116x_2 + 0,27x_1 \cdot x_2 + 0,113x_1^2$$



13-rasm. Qayta taralgan piltadagi kalta tolalar miqdori

Tajribalar tadqiqotlar asosida tuzilgan regressiya tenglamalari ko‘rinishidagi matematik modellar har bir omilning ta’sir darajasini aniqlash va omillarni o‘zgartirganda qayta tarash piltasi sifatini bashorat qilish imkonini beradi.

Asosiy ko‘rsatkichlarni variantlar bo‘yicha tasodifiy taqsimlash asosida o‘rta tolali paxtadan qayta tarash sistemasida ip olishda takomillashtirilgan taroqli barabanchali qayta tarash mashinasini shaylash parametrlarining ratsional parametrlari randomizatsiya natijalariga ko‘ra: taroqli barabanchaning aylanish tezligi 440 min^{-1} , qisqichning pastki jag‘i va ajratuvchi silindr orasidagi masofa 11,5 mm (tarandi chiqish miqdori 15%).

Dissertatsiyaning “**Ishlab chiqarish sharoitida sinov tajriba tadqiqotlari va iqtisodiy samaradorlikni hisoblash**” deb nomlangan to‘rtinchi bobida “TEXTILE FINANCE KHOREZM” MChJ korxonasining ishlab chiqarish jarayonida yigirish rejasiga muvofiq o‘rta tolali paxtadan trikotaj mahsulotlari uchun 20 teks (Ne 30) chiziqiy zichlikdagi halqali ip yigirish usulida ip olishda qayta tarash mashinasida takomillashtirilgan taroqli barabanchasining ishlashini sinovdan o‘tkazish natijalari keltirilgan.

Ikki variantdagi xomaki mahsulotlar va ipning sifat ko‘rsatkichlari taqqoslandi: nazorat (korxonada mavjud uskunalar bo‘yicha xomaki mahsulotlar va iplarni ishlab chiqarish);

tajriba (takomillashtirilgan taroqli barabancha yordamida olingan qayta taralgan piltadan ip ishlab chiqarish).

Ip korxonada ishlatilayotgan o‘rta tolali paxta, 5-tip, I nav, Yaxshi sinf va Xorazm 127 seleksiyasi saralanmasidan foydalanib ishlab chiqarilgan.

Ishlab chiqarishni tekshirish jarayonida ikkala variantning qayta tarash piltasi 1 m qirqimlari uchun variatsiya koeffitsiyenti 0,74% da olingan xolstchadan ishlab chiqarilgan.

Xomaki mahsulotlarning sifat ko‘rsatkichlari 4-jadvalda keltirilgan.

Xomaki mahsulotlarning sifat ko'rsatkichlari


T/r	Ko'rsatkichlar nomi	Taralgan pilta		Piltalangan pilta I o'tim		Pilik	
		Nazorat varianti	Tajriba varianti	Nazorat varianti	Tajriba varianti	Nazorat varianti	Tajriba varianti
1	Variatsiya koeffitsiyenti 1m qirqimlar bo'yicha, C %	1,06	0,92	0,45	0,40	1,72	1,56
2	Kesim bo'yicham notekislik: - chiziqiy, U%	2,58	2,02	1,9	1,76	3,16	3,05
	- variatsiya koeffitsiyenti, C _m %	3,25	2,53	2,39	2,21	4,0	3,86
3	Ust darajasi			21	12	37	30

4-jadvalda tajriba variantining taralgan ipi bir xilroq ekanligi ko'rsatilgan. 1 metrli kesimlar uchun o'zgarish koeffitsiyenti 0,92% ni tashkil qiladi, nazorat variantida esa bu ko'rsatkich 1,06% ni tashkil qiladi. Pilta kesimi bo'yicha variatsiya koeffitsiyenti tajriba variantida $C_m=2,53\%$, nazorat variantida esa $C_m=3,25\%$.

Qayta taralgan pilta sifatining yaxshilanishi pilik notekisligiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Uster Statistics 2023 me'yorlari bilan solishtirganda 12% talablariga javob beradi (nazorat variantida 21%), kalta kesimlar uchun pilik notekislik qiymatlari 30% Ust standartiga javob beradi, nazorat variantida esa 37% standartiga javob beradi.


Solishtirilayotgan ikkala variantdan olingan piliklardan bir xil 20 teks (Ne 30) chiziqi zichlikdagi ip namunalari olindi.

Taqqoslangan variantlardagi iplarning fizik-mexanik va geometrik xossa ko'rsatkichlari, shuningdek, G-35 halqali yigirish mashinasidagi ip uzilishlari soni 14 va 15-rasmlardagi ustunli diagrammalarda aniq ko'rsatilgan.



14-rasm. Iplarning fizik-mexanik xossalari asosiy ko'rsatkichlari

14-rasmda tajriba variantidagi ipning solishtirma uzish kuchi nazorat variantidan 0,11 sN/teks yuqori bo‘lib, uzish kuchi bo‘yicha variatsiya koeffitsiyenti $C_v=6,34\%$, nazorat variantida - 7.89%.



15-rasm. Ip kesim bo‘yicha notekisligi va uning tashqi ko‘rinishidagi nuqsonlar

15-rasmda, shuningdek, Uster variatsiya koeffitsiyentining (Cm) 11,0% gacha (Uster Static bo‘yicha 14% darajasi) nazorat variantidagi 11,96% ga (Uster Static bo‘yicha 22% daraja) pasayganligi ko‘rsatilgan. Tajriba ip namunasi tashqi ko‘rinishdagi nuqsonlar soni 19,43% ga kamayganligini ko‘rsatdi. Yo‘g‘on joylar va tugunlar sonining 200% ga kamayishi sezilarli, chunki bu nuqsonlar ip kuchlanining o‘zgarishiga olib keladi, bu esa ip uzilishiga olib kelishi mumkin.

Ip sifati uzilish kuchi, uzilish kuchi bo‘yicha notekislik, iplarning kesim bo‘yicha notekisligi ipning uzilishiga ta’sir qiladi. Tajriba variantining eng yaxshi ip sifat ko‘rsatkichlari uzilishni soatiga 1000 urchuq uchun 59 dan 44 gacha yoki 100 km ip uchun 4,63 dan 3,44 gacha, ya’ni 25,4% ga kamaytirish imkonini berdi.

Uzilishni kamaytirish mashinaning samaradorligini oshirish, chiqindilarni (momiqlar, chigalliklar) kamaytirish, ya’ni ip chiqish hosildorligini oshirish, tabiiy xomashyoni tejash va yuqori sifatli ipni yuqori narxda sotish imkonini beradi.

Takomillashtirilgan taroqli segment moslamasini qo‘llab, halqali yigirish mashinasining foydali vaqt koeffitsiyenti va ishlab chiqarish hajmini oshirish hisobiga olinadigan iqtisodiy samaradorlik 1 ta mashina uchun yiliga 45132 ming so‘m yoki 1 tonna ip uchun 1 347 840 so‘mni tashkil etadi.

Xulosa

“O‘rta tolali paxtadan yigirilgan ip ishlab chiqarishda qayta tarash jarayonini takomillashtirish” mavzusidagi dissertatsiyaning tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalar tuzildi:

1. Taroqli barabancha bilan tarash jarayonida tolalarni ajratish va ularni tekislash samaradorligini oshirishni ta’minlovchi qayta tarash mashinasining taroqli segment moslamasi takomillashtirildi (O‘zbekiston Respublikasi patenti UZ IAP 8021).

2. Taklif etilayotgan taroqli segment moslamasida rezina amortizatorlardan foydalanish hisobiga taroqli barabanchaning aylanishi bo‘ylab kamayib borayotgan amplitudali taroqli segmentlarning zaruriy kichik burchakli tebranishlari ta’minlanadi, buning natijasida tolalarni ajratish va to‘g‘rilash samaradorligi ortdi.

3. Qiyosiy tajribaviy tadqiqotlar va olingan natijalarning dispersion tahlili asosida takomillashtirilgan taroqli segment moslamasining afzalligi isbotlandi.

4. To‘la omilli matematik modellashtirish usulidan foydalanib (TOT 3²-lotin kvadratining namunasini ifodalaydi) o‘rta tolali paxtadan qayta tarash texnologiyasida ip olishda takomillashtirilgan taroqli segment moslamasidan foydalanib qayta tarash mashinasi shaylash parametrlarining ratsional variantlari aniqlandi.

5. Qayta taralgan piltaning strukturaviy notekisligiga, uning chastotasiga va piltadagi tolalarning shtapel uzunligiga ta’sir qiluvchi omillar (taroqli segmentning aylanish chastotasi va qisqichning pastki jag‘i va ajratuvchi silindrlar orasidagi masofa) ning darajasini aniqlash va bashorat qilish imkonini beruvchi regressiya matematik modellari olindi.

6. Randomizatsiya natijalariga ko‘ra (sifat va unumdorlik nuqtayi nazaridan) takomillashtirilgan taroqli segment moslamasi bilan o‘rta tolali paxtadan ip olishda qayta tarash mashinasi shaylash parametrlarining ratsional variantlari quyidagilardir: taroqli barabanchasining aylanish chastotasi 440 min⁻¹ va qisqichning pastki jag‘i va ajratuvchi silindrlar orasidagi masofa 11,5 mm (tarandi chiqishi 15%).

7. Har xil konstruksiyadagi (korxonada va takomillashtirilgan) taroqli barabanchalar yordamida olingan qayta taralgan piltadan chiziqli zichligi 20 teks bo‘lgan ip ishlab chiqarildi. Takomillashtirilgan taroqli segment moslamasi yordamida olingan qayta taralgan piltadan olingan ip yuqori pishiqlik, bir tekis va tozalikka ega. Yigirish jarayonidagi uzilishlar 25% ga kamaydi. Mashina unumdorligi 1,66 kg/soat ga oshdi.

8. Takomillashtirilgan taroqli segment moslamasidan foydalanish va qayta tarash zonasining ratsional parametrlarini joriy etishdan yillik iqtisodiy samaradorlik 1 tonna ip uchun 1 347 840 so‘mni tashkil etdi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/2025.27.12.Т.21.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ТАШКЕНТСКОМ ИНСТИТУТЕ
ТЕКСТИЛЬНОЙ И ЛЕГКОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ
ТАШКЕНТСКИЙ ИНСТИТУТ ТЕКСТИЛЬНОЙ И ЛЕГКОЙ
ПРОМЫШЛЕННОСТИ**

МАТМУРАТОВА КУМРИХОН РАХМАНБЕРГАН КИЗИ

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ТЕХНОЛОГИИ ГРЕБНЕЧЕСАНИЯ ПРИ
ВЫРАБОТКЕ ПРЯЖИ ИЗ СРЕДНЕВОЛОКНИСТОГО ХЛОПКА**

**05.06.02 – Технология текстильных материалов и первичная
обработка сырья**

**АВТОРЕФЕРАТ
ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)
ПО ТЕХНИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Ташкент – 2026

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за № В2025.3.PhD/T5976

Диссертация выполнена в Ташкентском институте текстильной и легкой промышленности.
Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (www.titp.uz) и на Информационно-образовательном портале «Ziyounet» (www.ziyounet.uz).

Научный руководитель:	Матисмаилов Сайпидла Лолашбевиич доктор технических наук, профессор
Официальные оппоненты:	Ханхаджаева Нилуфар Рахимовна доктор технических наук, профессор
	Юлдашев Жамшид Камбаралиевич доктор технических наук, профессор
Ведущая организация:	Джизакский политехнический институт

Защита диссертации состоится «16» апреля 2026 года в 14⁰⁰ часов на заседании Научного совета DSc.03/2025.27.12.T.21.01 при Ташкентском институте текстильной и легкой промышленности (Адрес: 100100, г. Ташкент, ул. Шохжахон-5 в административном здании Ташкентского института текстильной и легкой промышленности, 2-222 аудитория, тел.: (+99871) 253-06-06, (+99871) 253-08-08, факс: (+99871) 253-36-17; e-mail: titp_info@edu.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского института текстильной и легкой промышленности (зарегистрирована за № 289). Адрес: 100100, г. Ташкент, ул. Шохжахон, 5, тел.: (+99871) 253-06-06, (+99871) 253-08-08.

Автореферат диссертации разослан «30» марта 2026 года.
(реестр протокола рассылки № 289 от «30» марта 2026 года).



Х.Х.Камилова
Председатель Научного совета по присуждению
ученых степеней, д.т.н., профессор

А.З.Маматов
Ученый секретарь Научного совета по присуждению
ученых степеней, д.т.н., профессор

Ш.Ш.Хакимов
Председатель Научного семинара при научном совете
по присуждению ученых степеней, д.т.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ

(аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. Объем мирового рынка текстильной пряжи в 2025 году оценивался в 117,99 млрд долларов США. 170,32 млрд долларов США к 2034 году, демонстрируя среднегодовой темп роста в 4,26% в течение прогнозируемого периода. В условиях рыночной экономики каждое предприятие стремится к снижению себестоимости продукции при одновременном повышении её качества. В качестве примера можно привести практику использования хлопка средневолокнистых сортов вместо длиноволокнистого хлопка при прядении гребенной пряжи. Данный подход позволяет не только снизить затраты на производство продукции (пряжи), но и обеспечить её конкурентоспособность. В этой связи особое значение приобретает совершенствование техники и технологий, применяемых при производстве качественных полуфабрикатов в процессе гребнечесания с эффективным использованием средневолокнистого хлопкового волокна.

В мировой текстильной промышленности ведутся научные исследования, направленные на внедрение технологий, не повреждающих волокна, оптимизацию параметров оборудования с целью снижения энергопотребления, а также повышение прочности пряжи. В данном направлении приоритетное значение имеют исследования по совершенствованию процесса гребнечесания при производстве пряжи из средневолокнистого хлопка. Вместе с тем, совершенствование процесса гребнечесания способствует снижению производственных затрат, повышению качества и объёмов выпускаемой пряжи, а также выявлению факторов, влияющих на технологические процессы, и разработке их рациональных параметров и научно обоснованных технологий, что является одной из актуальных задач.

В Республике осуществляются комплексные меры по развитию текстильной и швейно-трикотажной промышленности, поддержке инвестиционной и экспортной деятельности предприятий отрасли, в результате чего достигаются определённые результаты. В Стратегии «Узбекистан – 2030» на 2023–2030 годы, в частности, «...определены приоритетные задачи, направленные на обеспечение устойчивого роста национальной экономики, модернизацию отраслей промышленности и увеличение доли продукции с высокой добавленной стоимостью, а также на расширение объёмов производства продукции текстильной промышленности»... на основе глубокой переработки местных сырьевых ресурсов и повышение её экспортного потенциала. В реализации данных задач важное и актуальное значение имеет улучшение показателей качества текстильной продукции, а также внедрение современных энергосберегающих технологий, обеспечивающих выпуск конкурентоспособной продукции.

Данная диссертационная работа в определённой степени способствует реализации задач, установленных в Указах Президента Республики Узбекистан от 1 мая 2024 года № УП-71 «О мерах по выведению на новый этап развития

